

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 03/30.07.2024.I.78.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

HOJIQULOVA FERUZA DONA QIZI

**“SANOAT TARMOG‘IDA INVESTITSIYALARDAN SAMARALI
FOYDALANISH JARAYONLARINI STATISTIK BAHOLASH
(SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)”**

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in economic
sciences**

Hojiqulova Feruza Dona qizi

Sanoat tarmog‘ida investitsiyalardan samarali foydalanish jarayonlarini statistik baholash (Surxondaryo viloyati misolida).....3

Ходжикулова Феруза Дона кызы

Статистическая оценка процессов эффективного использования инвестиций в производственную сеть (на примере Сурхандарьинской области).....29

Hojikulova Feruza Dona kizi

Statistical assessment of the processes of effective use of investments in the industrial network (in the case of Surkhandarya region).....55

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works58

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 03/30.07.2024.I.78.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

HOJIQULOVA FERUZA DONA QIZI

**“SANOAT TARMOG‘IDA INVESTITSIYALARDAN SAMARALI
FOYDALANISH JARAYONLARINI STATISTIK BAHOLASH
(SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)”**

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Termiz – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Iqt4695 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tersu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Xatamov Ochildi Qurbonovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Otajonov Umid Abdullayevich**
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Raximov To'xtabek Jumaboyevich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi **PhD. 03/30.07.2024.I.78.06** raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "___" _____ soat ___:___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99 876) 221-72-34, faks.: (99 862) 228 -01 -20, e-mail: info@tersu.uz)

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99 876) 221-72-34, faks.: (99 876) 228 -01 -20, e-mail: info@tersu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil "___" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

A.H. Toshqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

U.T. To'lakov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.f.d., dotsent

O.A. Abdug'aniyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Global miqyosda sanoat tarmoqlariga investitsiyalar jalb qilishning bugungi holati va investitsiyalar samaradorligini optimallashtirishdagi asosiy tahlil ko‘rsatkichlardan biri - bu sanoatga kiritilgan investitsiya hajmidir. Albatta, sanoat mahsulotlari narxi va fuqarolarni qulay va sifatli sanoat mahsulotlari bilan ta‘minlash ko‘p jihatdan taklif hajmiga bog‘liq. Jumladan, Fransiyada sanoat tarmoqlariga investitsiya ulushi 2024-2026-yillarda YaIM 21,8% ni tashkil qiladi. 2026-yilga borib, mamlakat sanoat mahsuloti 9041,005 trillion dollarga yetishi kutilmoqda¹. Bunday holat, o‘z navbatida, sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini tahlil qilish va ular faoliyatini samarali tarzda boshqarish zaruratini keltirib chiqaradi. Bu esa, bugungi kunda juda dolzarb masalalardan biri ekanligini ko‘rsatmoqda.

Dunyo mamlakatlarida sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini kuchaytirish orqali investitsiyalarni optimallashtirish va samaradorlik ko‘rsatkichlaridan foydalangan holda, sanoat sohasida investitsiyalarni boshqarish jarayonida xavf-xatarlarni aniqlab investitsiya strategiyalarini ishlab chiqishda xavflarni kamaytirish va ehtimoliy tahdidlarni oldini olishga qaratilgan choralar ko‘rish yuzasidan qator maqsadli ilmiy izlanishlar amalga oshirilmogda. Sanoat korxonalarining joylashuvi va ularning infratuzilma bilan bog‘lanishi, shu jumladan transport va kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta‘minlanishi kiritilayotgan investitsiyalarning optimal samaradorligini ifodalaydigan parametrlarining muhim omillarini aniqlash, yaqin davrlarda ularga bo‘lishi mumkin bo‘lgan tahdidlar va ularni optimal tartibga solish borasida ekonometrik baholash bo‘yicha tadqiqotlar bu boradagi ilmiy izlanishlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev tomonidan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish maqsadi belgilangan. Bunga faqat ichki bozor bilan erishib bo‘lmaydi, asosiysi – xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish va eksportni ko‘paytirish zarur²” deya ta‘kidladilar. Shuningdek, sanoat tarmog‘ining barqaror rivojlanishini ta‘minlash, mamlakat iqtisodiyotining mustahkam poydevori hisoblanib, xalqning farovonligini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va xalqaro bozorlar bilan raqobatbardoshlikni ta‘minlashi ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish bozorlarida xususan, tarmoq bozorlarida monopoliyaga yo‘l bermaslik, ushbu soha bilan faoliyat yurutuvchi subyektlar faoliyatiga ortiqcha aralashuvning oldini olish, o‘z navbatida, korrupsiya hamda nepotizmga yo‘l qo‘ymaslik, bozorning har tomonlama jozibadorligini ta‘minlash ishlab chiqaruvchilarga keng tanlov imkoniyatlarini yaratish, ularning haq-huquqlarini ta‘minlash, tadbirkorlarning ehtiyojmand qatlamiga subsidiya va imtiyozlar berish, soliq imtiyozlarini taqdim etish hamda ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash orqali sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni jalb qilish va ularning mehnat unumdorligini oshirish masalalariga doir samarali va optimal yechim berishga e‘tibor qaratmoqda.

¹ Banque de France macroeconomic projections for France – June 2024 Update.

² Sh.M. Mirziyoyev raisligida 2024 yilning 18 yanvar kuni investitsiya, eksport va sanoat sohalaridagi vazifalar belgilanishi masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishi.

“Yangi yaratilayotgan sanoat mahsulotlari tannarxi sun’iy oshib ketmasligi, sanoat tarmog‘ida investitsiya samaradorligini statistik baholash yordamida tarmoqning kelgusi rivojlanishini prognozlash, investitsiyalarni optimal yo‘naltirish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish kabi keng imkoniyatlar berishni mamlakatimiz iqtisodiyotining ustuvor vazifalaridan biri sifatida qarash mumkin”³.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-dekabrda PQ-3437-son “O‘zbekiston Respublikasining rivojlantirish va moliyalashtirishning yangi tartibini joriy etish to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrda PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 18-dekabrda PQ-397-son “Sanoatni rivojlantirish jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida” qarori, 2024-yil 14-martda PQ-126-son “Tashqi savdo va hududiy sanoatni rivojlantirishda tadbirkorlar birlashmalarining rolini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2024-yil 6-avgustda PQ-283-son “Markaziy Osiyo xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazi erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori, 2024-yil 7-avgustda PQ-286-son “Sanoat sohasida nufuzli xalqaro brendlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va milliy brendlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2024-yil 15-avgustda PQ-295-son “Hududlarda sanoat salohiyatini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, hamda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25-noyabrda VMQ-783-son “Sanoat korxonalarining atrof-muhitga salbiy ta‘sirini kamaytirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda ko‘zda tutilgan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sanoat tarmog‘iga jalb etilgan investitsiya samaradorligi statistik baholash masalalarini xorij olimlaridan P.E.Michael, G. Duranton, P. Martin, Th. Mayer, F. Mayneris, B. Ziberi, F. Miftari, L.Omaj, R.M. Solow, K.J. Arrow, A.L. Loughheed, shuningdek, M. Bradu, A.I. Leshin va A. Abiad, D. Furceri and P. Topalova, I. Abdullin, O. Ignatjeva, A. Mustafin va J.Gonos, P. Ovchinnikova, E. Nikolayevna va A. Valerevich⁴ va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan.

³ “Ma‘muriy islohotlar doirasida raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.07.2023 yildagi PF-108-son.

⁴ Abdullin Ildar Ikramovich, Ignateva Oksana Anatolevna, Mustafin Askar Nailevich. “Macroeconomics” Textbook. Gonos Jaroslav. KAZAN. 2022; Овчинникова Наталья. “Влияние прямых иностранных инвестиций на экономический рост: модель потока капиталовложений в промежуточное пространство”. Московский государственный университет. 2003; Пак Елена Николаевна. “Методология статистики иностранных инвестиций в Российской Федерации” Москва. 2010; Черво Андрей Валерьевич. “Управление инвестиционными ресурсами

Sanoat tarmog‘i rivojlanishi, hamda turli iqtisodiy tarmoqlar va ishlab chiqarish sohalari kiritilayotgan investitsiyalar barqaror va samarali o‘shishni ta‘minlashi masalalari yurtimiz iqtisodchi olimlaridan O.Q. Xatamov, O.A. Abdug‘aniyev, B.E.Turaev, S.O. Xomidov, N.O. Xatamov, N.N. Norqobilov, Sh.Z. Soatmurodov, F.M. Murodxo‘jayeva, B.T. Bayxonov, T.M. Tadjiyev, Z.A. Nuriddinov hamda I.S.Abdullaev va T.J. Raximovlar⁵ tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan.

Yuqoridagi ilmiy-tadqiqot ishlarida sanoat tarmoqlariga kiritilgan investitsiya samaradorligi turli jihatlarini o‘rganilgan bo‘lsada, hudud darajasida sanoat tarmoqlariga kiritilgan investitsiya samaradorligini baholashning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ekonometrik modellashtirish ishlari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Sanoat tarmog‘iga kiritilgan investitsiyalarning iqtisodiy-statistik tahlili va uni prognozlash masalalarida hudud tadbirkorlari sanoatga investitsiya kiritishda infratuzilma bilan ta‘minlanganlik darajasini inobatga olish, hududlardagi mahsulotlar o‘rtacha narxi hamda hajmining prognoz parametrlarini ishlab chiqish jarayonlariga kam e‘tibor qaratilgan. Bu esa, mazkur yo‘nalishlarda tadqiqot va izlanishlar olib borishni taqozo qiladi hamda tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

социальной сферы региона: (на примере реализации национального жилищного приоритета в Республике Татарстан)”. Kazan 2009. Michael E. Porter. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors Hardcover – Illustrated, June 1, 1998 397p; Gilles Duranton, Philippe Martin, Thierry Mayer, Florian Mayneris. The Economics of Clusters: Lessons from the French Experience (Studies of Policy Reform) - Oxford University Press, 1st edition (January 14, 2011) 192p; Besime Ziberi, Florije Miftari, Leonita Omaj. The Econometric Approach of the Impact of Public Investment in the Road-Infrastructure in the Economic Growth of Kosovo; Robert M. Solow. A Contribution to the Theory of Economic Growth- 1956. Massachusetts institute of technology; Social Kenneth J. Arrow Choice and Individual Values- Yale University Press, 2012, 192p; A.L.Lougheed. International Trade Theory and Economic Growth- First published: 01 January 1968. 199p; Marcel Bradu. Statistical-Financial Valuation Methods of the Investment Projects - Maes Kishinev, Republic of Moldavia; Aleksandr I. Aleshin .Rossiya. “Statistical Methods for Evaluating Investment Effectiveness”; Abdul Abiad, Davide Furceri and Petia Topalova. The Macroeconomic Effects of Public Investment: Evidence from Advanced Economies, © 2015 International Monetary Fund.

⁵ Xatamov O.Q. Qishloq xo‘jalik texnikasi lizingiga investitsiyalar jalb etish jarayonlarini modellashtirish. Monografiya. Toshkent :“O‘zbekiston milliy ensiklopediasini”, 2007, -142 b. Abdug‘aniyev O.A. Iste‘mol savatiga kiruvchi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish jarayonlarini modellashtirish (Surxondaryo viloyati misolida) 08.00.06 – Ekonometrika va statistika. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2020; Turayev B. E. Qurilish materiallari sanoati rivojlanishini ekonometrik modellashtirish (Surxondaryo viloyati misolida) 08.00.06 – Ekonometrika va statistika. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2023; Xomidov S.O. Sanoatning rivojlanish tendentsiyasini modellashtirish (O‘zbekiston Respublikasi misolida). // 08.00.06- Ekonometrika va statistika. Iqtisodiyot fan. falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2022; Xatamov N.O. Mintaqa iqtisodiy tizimini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ekonometrik modellari (Surxondaryo viloyati misolida). // 08.00.06- Ekonometrika va statistika. Iqtisodiyot fanlari doktorlik dissertatsiyasi avtoreferat, Urganch, 2023; Norqobilov N.N. “Инвестициялардан самарали фойдаланиш асосида минтақа иқтисодиёти барқарор ўсишини таъминлаш”. и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Урганч, 2022; Soatmurodov Sh.Z. Mintaqa sanoat tarmoqlarini rivojlantirishning ekonometrik modellari (Surxondaryo viloyati misolida). // 08.00.06- Ekonometrika va statistika. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Urganch, 2024; Murodxo‘jayeva F.M. Sanoatda transformatsiyalash jarayonining mintaqaviy xususiyatlari (Namangan viloyati misolida). // 08.00.12- Mintaqaviy iqtisodiyot. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2018; Bayxonov B.T. O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarni tarmoqlararo taqsimlashning ekonometrik modellashtirish uslubiyatini takomillashtirish. // 08.00.06- Ekonometrika va statistika. Iqtisodiyot fanlari doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2022; Tadjiyev T.M. Sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishning ekonometrik modellari. // 08.00.06 – Ekonometrika va statistika Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Urganch, 2022; Nuriddinov Z.A. Mintaqalar iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish va investitsion jozibadorligini statistik baholash. // 08.00.06 – Ekonometrika va statistika. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2022; Raximov T.J. Iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishini prognozlash usullari // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2018-yil; Abdullayev O.M. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni prognozlashning uslubiy asoslari // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2 noyabr, 2011-yil.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishi rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Termiz davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi doirasida hamda 2020 - yildan TRIGGER (Triggering innovative approaches and entrepreneurial skills for students through creating conditions for graduate's employability in Central Asia - Markaziy Osiyoda bitiruvchilarning ishga joylashishi sharoitlarini yaratish uchun talabalarning innovativ yondashuvlari va tadbirkorlik ko'nikmalarini yo'lga qo'yish)" nomli fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi hudud sanoat tarmog'ida investitsiyalardan samarali foydalanish jarayonlarini iqtisodiy-statistik tahlili va mazkur soha rivojlanish tendensiyalarini prognozlashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sanoat tarmog'ida investitsiyalardan samarali foydalanish jarayonlarini tahlil qilish, ilmiy-uslubiy jihatlari bo'yicha xorij va mahalliy tadqiqotlarni umumlashtirish asosida mualliflik yondashuvini berish;

sanoat tarmoqlariga kiritilgan investitsiyalar samaradorligini statistik baholash borasida xorij va mahalliy olimlar izlanishlarini tahlil qilish;

sanoat tarmoqlariga kiritilgan investitsiyalar va sanoat korxonalarini faoliyatini iqtisodiy statistik tahlil qilish;

sanoat tarmog'iga kiritilgan investitsiyalar samaradorligini statistik baholash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

sanoat tarmog'iga kiritilgan investitsiya samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish;

hududdagi sanoat tarmoqlariga kiritilgan investitsiya hajmi va uning ishlab chiqarish hajmi, hamda boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sirini ekonometrik modellar yordamida tahlil etish hamda prognoz parametrlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Surxondaryo viloyati sanoat tarmog'iga investitsiyalar jalb etish jarayonlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida sanoat tarmoqlariga investitsiya kiritish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida guruhlash, tizimli, mantiqiy yondashuvlar, solishtirma tahlil, monografik tahlil, statistik tahlil, klaster usuli, korrelatsion va regression tahlil, ekonometrik tahlil, SWOT-tahlil kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

hudud investitsiya samaradorligini oraliq indeksi shkalalari ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu shkala bo'yicha Sherobod tumani "past samaradorlik" (0.1 - 0.2), Sho'rchi, Uzun, Qiziriq, Jarqo'rg'on tumanlari "o'rtacha samaradorlik" (0.2 - 0.4), Termiz tumani "o'rtachadan yuqori samaradorlik" (0.4 - 0.6), Oltinsoy, Denov, Muzrabot tumanlari "yuqori samaradorlik" (0.6 - 0.8) va Termiz shahar, Angor, Boysun, Qumqo'rg'on tumanlari " juda yuqori samaradorlik" (0.8 - 1.0) guruhlarda ekanligi aniqlangan;

sanoat tarmog'iga kiritilgan investitsiya samaradorligini baholashda ko'rsatkichlar tizimiga hudud infratuzilmasi ko'rsatkichini (*HIK*) kiritish asosida "birinchi darajali infratuzilma", "ikkinchi darajali xizmatlar" va "integratsiyalashgan infratuzilma ko'rsatkichlari" mezonlaridan foydalanish maqsadga muvofiqligi asoslangan;

tarmoqqa jalb etilgan investitsiya samaradorligini baholash uslubiyoti uning moliyaviy, iqtisodiy, sifat, tavakkalchilik, ijtimoiy va ekologik hamda hududiy infratuzilma ko'rsatkichi samaradorligini umumlashtirilgan integral ko'rsatkichi $[MBK_i + IBK_i + SBK_i + TBK_i + IEBK_i + HIBK_i]$ ni ishlab chiqish yordamida $K = \sum \alpha_i K_i$ me'zoni hisobiga takomillashtirilgan;

ko'p omilli ekonometrik modellar tuzish asosida Surxondaryo viloyati sanoatiga investitsiya jalb etish hamda uning tarmoq ishlab chiqarish va yalpi hududiy mahsulot hajmi o'sishiga ta'sirini 2024-2029 yillarga mo'ljallangan o'rta muddatli prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Surxondaryo viloyati shahar va tumanlari sanoat tarmog'iga kiritilgan investitsiyalar samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash darajasiga ko'ra guruhlangan;

sanoat tarmog'iga kiritilgan investitsiya samaradorligini baholashda "birinchi darajali infratuzilma", "ikkinchi darajali xizmatlar" va "integratsiyalashgan infratuzilma ko'rsatkichlari" mezonlaridan foydalanish maqsadga muvofiqligi asoslangan;

tarmoqqa jalb etilgan investitsiya samaradorligini baholash uslubiyoti uning moliyaviy, iqtisodiy, sifat, tavakkalchilik, ijtimoiy va ekologik hamda hududiy infratuzilma ko'rsatkichi samaradorligini umumlashtirilgan integral ko'rsatkichi hisobiga baholash taklifi ishlab chiqilgan;

Surxondaryo viloyatidagi sanoat tarmog'iga kiritilgan investitsiya samaradorligini iqtisodiy rivojlantirish va sanoatning barqaror o'sishini rag'batlantirish maqsadida 2024-2029 yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya tadqiqotida qo'llanilgan usul va yondashuvlarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlar rasmiy manbalardan olingani, o'tkazilgan tadqiqotlar iqtisodiy-matematik va ekonometrik usullar orqali asoslanganligi, statistik ma'lumotlarning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi ma'lumotlariga asoslanganligi va Surxondaryo viloyati Investitsiya, Sanoat va Savdo Boshqarmasi ma'lumotlari, xulosa va takliflarning mutasaddi tashkilot va idoralar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sifatida Surxondaryo viloyati shahar va tumanlarining sanoat tarmog'idagi investitsiyalar bo'yicha investitsiya samaradorligi ko'rsatkichlarini baholash darajasiga ko'ra guruhlash, sanoat tarmog'iga kiritilgan investitsiya samaradorligini baholashda "birinchi darajali infratuzilma", "ikkinchi darajali xizmatlar" va "integratsiyalashgan infratuzilma ko'rsatkichlari" mezonlaridan foydalanish maqsadga muvofiqligi asoslash, tarmoqqa jalb etilgan investitsiya

samaradorligini baholash uslubiyoti uning moliyaviy, iqtisodiy, sifat, tavakkalchilik, ijtimoiy va ekologik hamda hududiy infratuzilma ko'rsatkichi samaradorligini umumlashtirilgan integral ko'rsatkichi hisobiga baholash taklifi ishlab chiqish, Surxondaryo viloyatidagi sanoat tarmog'iga kiritilgan investitsiya samaradorligini oshirish va sanoatning barqaror o'sishini rag'batlantirish maqsadida 2024-2029 yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlar ishlab chiqish masalalarining ilmiy-uslubiy jihatlarini boyitish hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bo'lib, undan Surxondaryo viloyati tuman va shaharlarida sanoat tarmog'idagi investitsiyalar bo'yicha investitsiya samaradorligini baholash, sanoat tarmog'iga kiritilgan investitsiya samaradorligini baholashda "birinchi darajali infratuzilma", "ikkinchi darajali xizmatlar" va "integratsiyalashgan infratuzilma ko'rsatkichlari" mezonlaridan foydalanish, tarmoqqa jalb etilgan investitsiya samaradorligini baholash uslubiyoti uning moliyaviy, iqtisodiy, sifat, tavakkalchilik, ijtimoiy va ekologik hamda hududiy infratuzilma ko'rsatkichi samaradorligini umumlashtirilgan integral ko'rsatkichi hisobiga baholash taklifi ishlab chiqish, mintaqada 2024-2029 yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlar ishlab chiqish masalalarining ilmiy-uslubiy jihatlarini boyitish, shu bilan birga, oliy o'quv yurtlarida "Mintaqaviy iqtisodiyot", "Investitsiya va investitsion faoliyat", "Investitsiya siyosati", "Ekonometrika asoslari", "Statistika", "Biznes matematika" fanlarining o'quv-uslubiy materiallarini takomillashtirishda qo'llanilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Surxondaryo viloyati sanoat korxonalariga kiritilgan investitsiya samaradorligining ekonometrik modellarini tadqiq qilish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

hudud investitsiya samaradorligini oraliq indeksi shkalalari ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu shkala bo'yicha Sherobod tumani "past samaradorlik" (0.1 - 0.2), Sho'rchi, Uzun, Qiziriq, Jarqo'rg'on tumanlari "o'rtacha samaradorlik" (0.2 - 0.4), Termiz tumani "o'rtachadan yuqori samaradorlik" (0.4 - 0.6), Oltinsoy, Denov, Muzrabot tumanlari "yuqori samaradorlik" (0.6 - 0.8) va Termiz shahar, Angor, Boysun, Qumqo'rg'on tumanlari "juda yuqori samaradorlik" (0.8 - 1.0) guruhlariga ajratish hisobiga "Surxondaryo viloyati hokimining 2024-yil 30-iyuldagi "Surxondaryo viloyatining sanoat salohiyatini oshirish hamda sanoat korxonalarini bilan ishlashning monitoring tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha chora tadbirlar to'g'risida"gi 552-8-0-Q/24-sonli qarori ijrosi to'g'risida"gi qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyati hokimligining 2025-yil 11-yanvardagi 04-04/42-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni joriy qilinishi Surxondaryo viloyati Denov tumanida sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish darajasi joriy qiymatiga nisbatan 10,9 foizga qo'shimcha oshirishda muayyan darajada xizmat qilgan;

sanoat tarmog'iga kiritilgan investitsiya samaradorligini baholashda ko'rsatkichlar tizimiga hudud infratuzilmasi ko'rsatkichini (*HIK*) kiritish asosida "birinchi darajali infratuzilma", "ikkinchi darajali xizmatlar" va "integratsiyalashgan infratuzilma ko'rsatkichlari" mezonlaridan foydalanish maqsadga muvofiqligi

bo'yicha taklifidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2024-yil II-choragiga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 16-maydagi 286-sonli qarori hamda shu mazmundagi 2024-yil 4-iyundagi 446-8-0-Q/24-sonli Surxondaryo viloyat hokimligi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, ushbu qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyati hokimligining 2025-yil 11-yanvardagi 04-04/42-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning joriy qilinishi hududlarning infratuzilmasini jadallashtirib, aholi turmush darajasini 6,8 % ga oshirishda muayyan darajada xizmat qilgan;

tarmoqqa jalb etilgan investitsiya samaradorligini baholash uslubiyati uning moliyaviy, iqtisodiy, sifat, tavakkalchilik va ijtimoiy va ekologik hamda hududiy infratuzilma ko'rsatkichi samaradorligini umumlashtirilgan integral ko'rsatkichi $[MBK_i + IBK_i + SBK_i + TBK_i + IEBK_i + HIBK_i]$ ni ishlab chiqish yordamida $K = \sum \alpha_i K_i$ me'zoni hisobiga takomillashtirilib, ishlab chiqilgan modeli bo'yicha taklifi Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati hokimining 2024-yil 30-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Elektrotexnika sanoatining ishlab chiqarish va eksport salohiyatini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 10-yanvardagi PQ-15-sonli qarori ijrosini ta'minlash haqida"gi 75-8-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida" gi qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyati hokimligining 2025-yil 11-yanvardagi 04-04/42-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklif natijalaridan Surxondaryo viloyatidagi sanoat korxonalariga infratuzilma ko'rsatkichlari orqali investorlar tomonidan kiritiladigan investitsiya hajmini oshirishda muayyan darajada xizmat qilgan;

ko'p omilli ekonometrik modellar tuzish asosida Surxondaryo viloyati sanoatiga investitsiya jalb etish hamda uning tarmoq ishlab chiqarish va yalpi hududiy mahsulot hajmi o'sishiga ta'sirini 2024-2029-yillarga mo'ljallangan o'rta muddatli prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan natijalari bo'yicha taklifi Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat hokimining 2023-yil 5-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida investitsiyalar, sanoat va savdo sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 21-iyuldagi PF-111-son Farmoni ijrosini ta'minlash haqida"gi 470-8-0-Q/23-son qarorining ijrosini ta'minlash to'g'risida qarori ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyati hokimligining 2025-yil 11-yanvardagi 04-04/42-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu yangilik natijalaridan loyiha doirasida Surxondaryo viloyati, viloyatning Sariosiyo, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Bandixon hamda Boysun tumanlari hududlarida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishda muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish bo'yicha

tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 6 ta ilmiy maqola, shundan 2 tasi xorijiy va 4 tasi mahalliy jurnallarda nashr etilgan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 153 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Sanoat tarmog'ida investitsiyalardan samarali foydalanish jarayonlarini statistik baholashning nazariy- uslubiy asoslari”** nomli birinchi bobida iqtisodiyotning tarkibiy asoslaridan biri bo'lgan sanoat tarmog'i milliy rivojlanishning barqarorligi va iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Shuningdek, iqtisodiyotda sanoat tarmog'i, investitsiya hamda investitsiya samaradorligi, mutual fondlar, nekredit investitsiyalar, shuningdek, mahalliy kontentga asoslangan investitsiyalar kabi zamonaviy investitsiya vositalari va mexanizmlari bo'yicha ilg'or tajribalar tahlil qilinib, ularning iqtisodiy samaradorligi va amaliy qo'llanilish xususiyatlari o'zaro taqqoslanib, ushbu tushunchaning ilmiy-nazariy jihatlarini olimlar izlanishlari asosida investitsiyaning asosiy muhim xususiyatlari, shakllari, xossalari, tasnifi umumlashtirilib, dolzarb nazariy xulosalar chiqarilib, investitsiyalar samaradorligini baholash uslubiyoti ishlab chiqilgan. Shuningdek, sanoatga kiritilgan investitsiya samaradorligini baholash bo'yicha xorij tajribalar o'rganilib, uni Surxondaryo viloyatida qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, iqtisodiyotda sanoat tarmog'i tushunchasi, unga berilgan ta'riflar uslubiy jihatlarini o'rganilib, mualliflik yondashuvlari, sanoat tarmoqlari rivojlantirish omillari, sanoat tarmog'i iqtisodiy rivojlanishida bog'liq bo'lgan ijobiy hamda salbiy jihatlarini, hudud iqtisodiy o'sishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashga imkon beradigan sanoat tarmog'iga jalb etilgan investitsiyalar samaradorligini ekonometrik tahlil etish usullari va modellari, hudud investitsiya samaradorligini oraliq indeks shakllari, xalqaro tajribalar asosida rivojlangan G7 mamlakatlarida investitsiya bilan ta'minlanganlik darajasi o'rganilib, Surxondaryo viloyatining sanoat tarmoqlarida investitsiya samaradorligi ko'rsatkichi qiymatlari ishlab chiqilgan. Bobning alohida e'tibor qaratilgan yo'nalishi Surxondaryo viloyati misolida sanoatga kiritilgan investitsiyalarning samaradorligini kompleks baholashdir. Natijaviy jihatdan, sanoat tarmoqlarida investitsiyalarning samaradorligini baholashning kompleks tizimi ishlab chiqilib, u asosida baholash mezonlari, ko'rsatkichlar va reyting tizimi taklif etildi. Bu yondashuvlar sanoatga yo'naltirilgan investitsiya resurslarining oqilona taqsimlanishi, ularning iqtisodiy natijadorligini oshirish va hududiy

taraqqiyotga qo‘shayotgan hissasini aniqlash imkonini beradi. Investitsiyalash va investitsiya reytinglari negizi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Investitsiyalash va investitsiya reytinglari negizi ⁶

Mahalliy olimlarimizdan L.V. Buranova “Hududlarning investitsiya samaradorligini baholash darajasining iqtisodiy salohiyatga va mahalliy byudjet daromadlar bazasiga ta’siri, shuningdek, ularning o‘zaro bog‘liqlik nuqtai nazaridan oraliq indeksini taqqoslashda muhim ahamiyat kasb etadi”⁷ - deya ta’kidlagan. Sanoat tarmog‘i - bu xom ashyo yoki resurslarni qayta ishlash va ularni turli mahsulotlarga aylantirish jarayonini amalga oshiruvchi iqtisodiy soha bo‘lib, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga, ish o‘rinlari yaratishga va jamiyatning turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladigan tarmoqdir. Bu tarmoq tog‘ sanoati va ochiq konlarda ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi sanoati, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sanoati va boshqa sohalarni o‘z ichiga oladi va mamlakat iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi. Sanoat tarmog‘i

⁶ Muallif ishanmasi.

⁷ Buranova L.V. Hududlarning moliyaviy salohiyatini baholash orqali mahalliy byudjet daromadlarini mustahkamlash masalalari(Surxondaryo viloyati misolida) monografiya. Termiz-2022.-184b.

ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, innovatsiyalarni joriy etish va iqtisodiy o‘rta darajada ta’minlashga qaratilgan.

Qiymatlarni yagona baholash oraliqiga me’yorlashtirish lozim. Me’yorlashtirish uchun quyidagi formuladan foydalanildi ⁸ va hisob-kitob natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

$$X_n = \frac{X - X_{min}}{X_{max} - X_{min}} \quad (1)$$

1-jadval

2010-2023-yillar ma’lumotlari asosida Surxondaryo viloyatining hududlari miqyosida investitsiya samaradorligi ko‘rsatkichlarini me’yorlashtirish natijalari⁹

№	Tumanlar nomi	Hudud investitsiya samaradorligi ko‘rsatkichlarini me’yorlashtirish yig‘indilari	Me’yorlashtirish
0	Surxondaryo viloyati	3,49	
1	Termiz shahar	3,56	0,86
2	Oltinsoy	3,54	0,78
3	Angor	3,59	0,96
4	Boysun	3,58	0,93
5	Denov	3,53	0,75
6	Jarqo‘rg‘on	3,42	0,36
7	Qiziriq	3,42	0,36
8	Qumqo‘rg‘on	3,58	0,93
9	Muzrabot	3,53	0,75
10	Sariosiyo	3,60	1
11	Termiz	3,47	0,53
12	Uzun	3,38	0,21
13	Sherobod	3,32	0
14	Sho‘rchi	3,38	0,21

Tahlillar bo‘yicha 1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Surxondaryo viloyati bo‘yicha umumiy investitsiya samaradorligi ko‘rsatkichi 3.49 bo‘lib, bu viloyatning investitsiya salohiyatini o‘rtacha darajada ko‘rsatadi. Tuman ko‘rsatkichlari bo‘yicha esa, Sariosiyo (3.60) va Angor (3.59) eng yuqori ko‘rsatkichlarga ega. Bu mazkur tumanlarda investitsiyalar samarali boshqarilayotganini bildiradi. Sherobod (3.32) va Jarqo‘rg‘on, Qiziriq (3.42) past ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, bu hududlarda investitsiyalarni rag‘batlantirish zarurati bor. Me’yorlashtirish ko‘rsatkichlari bo‘yicha Sariosiyo (1.00) me’yorlashtirish ko‘rsatkichi bilan to‘liq investitsiya samaradorligini ta’minlaydi. Sherobod (0.01) tumanida me’yorlashtirish ko‘rsatkichi investitsiyalarni boshqarishda jiddiy muammolar mavjudligini va monitoring tizimi uchun hudud investitsiya samaradorligini muntazam ravishda nazorat qilish va baholash tizimini joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

⁸ Turayev Baxtiyor Ergashevich. Qurilish materiallari sanoati rivojlanishini ekonometrik modellashtirish (Surxondaryo viloyati misolida) 08.00.06 – Ekonometrika va statistika. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.

⁹ Surxondaryo viloyatining investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ushbu holatda ekanligidan kelib chiqib, hudud investitsiya samaradorligi indeks koeffitsiyenti darajalari quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Surxondaryo viloyati hududlari investitsiya samaradorligi oraliq indeksining joriy tahlili¹⁰

№	Hududning investitsiya samaradorligi oraliq indeks koeffitsiyenti darajasi	Hududlar (tuman)nomi	Hududning investitsiya samaradorligi holati
1.	Past samaradorlik (0.1 - 0.2)	Sherobod	Investitsiya oqimlaridan minimal foydalanish. Iqtisodiy faollikni oshirish va yangi loyihalarni amalga oshirish zarur.
2.	O'rtacha samaradorlik (0.2 - 0.4)	Sho'rchi, Uzun,Qiziriq, Jarqo'rg'on	Investitsiyalar mavjud, lekin ulardan samarali foydalanish zarur. Strategiyalarni takomillashtirish va innovatsiyalarni joriy etish lozim
3.	O'rtacha yuqori samaradorlik (0.4 - 0.6)	Termiz tumani	Investitsiya oqimlari yaxshi boshqarilmoqda. Rivojlanishni yanada oshirish uchun yangi imkoniyatlar izlash zarur.
4.	Yuqori samaradorlik (0.6 - 0.8)	Oltinsoy, Denov, Muzrabot	Investitsiyalar samarali boshqarilmoqda, iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Raqobatbardosh strategiyalar ishlab chiqish lozim.
5.	Juda yuqori samaradorlik (0.8 - 1.0)	Termiz shahar, Angor, Boysun, Qumqo'rg'on, Sariosiyo	Ushbu hududlar investitsiyalardan maksimal darajada foydalanmoqda. Iqtisodiy o'sish uchun qulay sharoitlar yaratilgan.

Dissertatsiya ishining **“Surxondaryo viloyati sanoat tarmog'iga jalb etilayotgan investitsiyaning soha va tarmoqlar bo'yicha statistik tahlili”** nomli ikkinchi bobda 2010-2023-yillarda Surxondaryo viloyatida tarmoq korxonalariga jalb etilgan investitsiyalar miqdori va korxonalari mutlaq o'sish, o'sish sur'ati, orttirma o'sish, 1% qo'shimcha o'sish qiymati va mutlaq jadallashish yoki so'nish sur'ati (dona), ko'rsatkichlari tahlil qilindi.

Shuningdek, 2010-2023-yillarda korxonalariga jalb etilgan investitsiyalar miqdori va korxonalar soni, investitsiyalar miqdori ular natijasida yaratilgan yangi ish o'rinlari, korxonalarining sof foydasi hamda ularning ta'sirida viloyatidagi o'rtacha oylik maoshining o'zgarishi, sanoat hajmining tumanlar kesimida taqsimlanishi statistik tahlil qilingan(3-jadval).


Tahlillar ko'rsatmoqdaki, 2010-2023 yillar mobaynida Surxondaryo viloyatida sanoat korxonalari soni 36 tadan 400 tagacha ortganini kuzatish mumkin. Ya'ni tahlil qilingan yillar mobaynida umumiy hisobda 4925 ta sanoat korxonasi tashkil etilgan. Bu esa, sanoat korxonalari soni har yiliga o'rtacha 205 taga ortib borganini anglatadi. Agar har bir yil bo'yicha tahlil qilinganda eng yuqori qiymati 2020 yilda 1225 tani tashkil etgan. Kiritilgan investitsiyalarning miqdori esa 2010 yilda 178 mlrd so'm bo'lgan, 2023 yilga kelib ushbu qiymat 5943,8 mlrd. so'mni tashkil etmoqda. Yillar kesimida jalb etilgan investitsiyaning eng katta qiymati 2023 yilga 5943,8 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda eng kam miqdor 178 mlrd. so'm tashkil etganligi kuzatildi. Ushbu tahlil qilinayotgan yillarda yalpi hududiy mahsulot miqdori qariyb 13,5 martaga ortdi.

¹⁰ Surxondaryo viloyatining investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.


2010-2023 yillarda viloyatga jalb etilgan investitsiyalar miqdorining trend tenglamalari¹¹

	Tenglama nomi	Tenglama ko‘rinishi	R^2 ning qiymati
1	Eksponentsional tenglama	$y = 3E - 247e^{0,2848 \cdot x}$	0,9896
2	Chiziqli	$y = 411,65 \cdot x - 828328$	0,8157
3	Logarifmik tenglama	$y = 829749 \ln(x) - 6E + 0,6$	0,815
4	Darajali	$y = 53,268x^2 - 214417x + 2E + 0,8$	0,9905

Yuqoridagi barcha trend tenglamalarda R^2 ning qiymati juda yaxshi ekanligini ko‘rish mumkin. Bu esa prognoz qiymatlarni ishlab chiqarishda aniqlik va modelning sifatini belgilashda ancha qo‘l keladi.



2010-2023 yillarda hududga jami 24708,3 mlrd. so‘mlik investitsiya kiritilgan. Bu tahlil qilinayotgan yillarda o‘rtacha 1029,51 mlrd. so‘mni tashkil etishini ko‘rsatadi. Ushbu o‘shish miqdori ayniqsa “Yangi O‘zbekiston” iqtisodiyotida sezilarli darajada namoyon bo‘lmoqda. 2010 yilda viloyatning yalpi hududiy mahsuloti (YaHM) 2010 yilda 3 394,7 mlrd. so‘mni, 2023 yilda esa 40 909,8 mlrd. so‘mni tashkil etgan. YaHM ning o‘rtacha miqdori 9995,44 mlrd so‘mni, jami esa 239890,7 mlrd so‘mni tashkil etgan. Ushbu ko‘rsatkichlarning o‘zgarish dinamikasini quyidagi rasmda ko‘rish mumkin(3-rasm).




¹¹ Muallif ishlanmasi.

¹² Muallif ishlanmasi.

¹³ Surxondaryo viloyatining investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.


Tahlillar natijasida hududda sanoat korxonalarining o‘zgarish tendensiyasi trend tenglamasi $y = 34,636 \cdot e^{0,292x}$ ko‘rinishida bo‘lganda $R^2 = 0,8288$ ekanligi aniqlandi. Qolgan trend tenglamalarida R^2 miqdori biroz past ekanligini ko‘rish mumkin. Bunga asosiy sabab sifatida 2020 yilda butun dunyoda kuzatilgan COVID-19 pademiyasidir. Aynan shu sababli butun dunyoda kuzatilgani singari viloyat iqtisodiyotida ham turg‘unlik kuzatildi. Chunki, ushbu yilda kiritilgan cheklovlar fonida sanoatning barcha soha va tarmoqlarida keskin tushish kuzatildi. Mutlaq o‘zgarishning bazisli usulda tahlil qilinganda jami 4421 ta sanoat korxonalari tashkil etilgan va bu tahlildagi 24 yilda o‘rtacha 184 tani tashkil etadi. Bazis yil 2010 yilda 36 tani 2016 yilda esa 178 tani tashkil etadi. “Yangi O‘zbekiston”da iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarda xorijiy investitsiyalarni jalb etishga alohida e’tibor qaratdi. Buni sanoat korxonalari mutlaq o‘zgarishining bazisli usulda tahlilida ko‘rish mumkin. 2017 yilda 338 taga, 2018 yilda 342 taga, 2019 yilda 1189 taga, 2020 yilda 798 taga 2021 yilda 512 taga, 2022 yilda 36 taga ortganini kuzatish mumkin (4-rasm).



4-rasm. Sanoat korxonalari sonining zanjirsimon va bazisli usulda mutlaq o‘zgarishi¹⁴

O‘shish sur‘atining zanjirsimon usulda tahlil qilinganda ham jami 1679 % ga, o‘rtacha esa 69,96 % ga ortganini ko‘rish mumkin. Yillar bo‘yicha qilingan tahlillar esa eng kichik qiymati 2020 yilda 65,7 % dan eng yuqori o‘shish 2011 yilda 200 % gacha bo‘lgan oraliqda o‘zgargan. O‘shish sur‘ati bazisli usulda tahlil qilinganda albatta faqat o‘shishga erishgan. Buni quyidagi raqamlar ham ifodalaydi. 2012 yilda 180,56 %, 2013 yilda 269,44 % ga ortganini kuzatish mumkin. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, “Yangi O‘zbekiston”da iqtisodiyotimiz rivojlanishning yangi bosqichiga ko‘tarildi. Buni sanoat korxonalari sonining o‘shish sur‘atining bazisli usuldagi tahlilida ham kuzatish mumkin. E’tibor qiling, 2017 yilda tahminan 5,9 barobarga, 2018 yilda 10,4 barobarga, 2019 yilda 19,9 barobarda, 2023 yilda esa 11,1 barobarga o‘shishi kuzatildi. O‘shish sur‘atining o‘zgarish dinamikasini quyidagi 5-rasmda ko‘rish mumkin.

¹⁴ Surxondaryo viloyatining investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



5-rasm. Surxondaryo viloyati 2023-yil sanoat hajmi ulushining tuman va shaharlar bo'yicha tasviri¹⁵

2023-yilga kelib, viloyat bo'yicha sanoat hajmi 8848,6 mlrd. so'mni tashkil etdi(5-rasm). Bu qiymat bazaviy 2010-yilga nisbatan 8092,2 mlrd. so'mga yoki 11,6 martaga boshqacha qilib aytganda 10,6 barobarga ortdi. Agar mutlaq o'zgarishning zanjirsimon usulda tahlil qilsak, Sariosiyo 323 mlrd, Sho'rchi 7,1 mlrd. so'mlik tushish bilan yilni yakunlagan. Eng yuqori o'sish esa Sherobod tumanida 284,8 mlrd, Denov tumanida 562,8 mlrd, Qumqo'rg'on tumanida 192,4 mlrd. so'mni tashkil qildi. Tuman va shaharlarning viloyat miqyosida ulushlarini tahlil qilsak eng katta qiymatlar Termiz shahri 15%, Jarqo'rg'on tumani 13%, Denov tumanida 9 % kuzatildi.

2010-2023 yillar davrida amalga oshirilgan investitsiya faoliyati natijasida jami 4 925 ta yangi ish o'rni yaratilgan bo'lib, bu ko'rsatkich yiliga o'rtacha 351 ta ish o'rni tashkil etgan. Tahlil qilingan davrda eng past natija 2010 yilda qayd etilib, bor-yo'g'i 245 ta ish o'rni yaratilgan. 2017 yilga kelib bu ko'rsatkich 2 711 taga yetgan bo'lsa, eng yuqori natija esa 2020 yilda kuzatilib, 7 565 ta yangi ish o'rni tashkil etilgan. Bu raqamlar sanoatga yo'naltirilgan investitsiyalarning bandlikka ta'sirini yaqqol namoyon etadi va mazkur davrda investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi ortib borayotganini ko'rsatadi (6-rasm).



6-rasm. Surxondaryo viloyatida 2010-2023 yillarda sanoat tarmoqlarida yaratilgan ish o'rinlari o'zgarishi¹⁶

¹⁵ Muallif ishlanmasi.

¹⁶ Surxondaryo viloyatining investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Biz bu rasmni chuqurroq tahlil qiladigan bo‘lsak, 2020-yilgi katta o‘shish, COVID-19 pandemiyasi va uning ijtimoiy-iqtisodiy ta’siri bilan bog‘liq bo‘lishini ko‘rsatadi, chunki hukumatlar va tashkilotlar iqtisodiy rag‘batlantirish va ish o‘rinlari yaratish uchun maxsus chora-tadbirlarni amalga oshirdilar. Pandemiya ko‘plab sohalarda ish o‘rinlarining pasayishiga olib keldi, lekin ba’zi sohalarda yangi ish o‘rinlari yaratilishi uchun turli choralar ko‘rildi. Xususan, sog‘liqni saqlash va tibbiyot sohaslarida, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat ishlab chiqarish, internet va raqamli xizmatlar hamda, ijtimoiy xizmatlar va davlat sektorida ish o‘rinlari yaratilishida muhim o‘zgarishlar yuz berganligi bilan ifodalanadi. Hududdagi sanoat tarmoqlari uchun SWOT tahlil (4-jadval) amalga oshirildi.

4-jadval

Hududdagi sanoat tarmog‘i uchun SWOT tahlili¹⁷

S- KUCHLI TOMONLAR	W- ZAIF TOMONLAR
<ul style="list-style-type: none"> ➤ Surxondaryo viloyati boy tabiiy resurslarga ega bo‘lib, bu sanoat korxonalarini uchun qulay sharoit yaratadi. Strategik joylashuv bo‘yicha O‘zbekistonning janubi, qo‘shni davlatlar bilan yaqin aloqaga ega, bu esa eksport imkoniyatlarini kengaytiradi; ➤ Siyosiy qo‘llab-quvvatlash jaroyoni bo‘yicha O‘zbekiston hukumati investitsiyalarni amalga oshirish uchun tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlaydi va turli imtiyozlar taqdim etadi; ➤ Ijtimoiy rivojlanish jihatidan sanoatni rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlari va ijtimoiy infratuzilmani oshirish imkoniyatlari mavjud; 	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Iqtisodiy rivojlanishning pasayishida viloyat dastlabki sanoat inshootlarini modernizatsiya qilmaslik tufayli rivojlanishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda; ➤ Infratuzilma yetarli emasligi- Hududning tumanlarida transport va energetika infratuzilmasi rivojlangan emas, bu esa investitsiyalarni jalb qilishda qiyinchilik tug‘dirishi mumkin; ➤ Malakali kadrlarning etishmasligi bo‘yicha sanoat sohasida malakali nazorat va menejment kadrlari yetishmovchiligi; ➤ Innovatsion rivojlanishning yetishmasligi natijasida sanoat tarmog‘ida innovatsion yechimlar va yangi texnologiyalarni joriy etish yetarli darajada emas;
O- IMKONIYATLAR	T- TAHDIDLAR
<ul style="list-style-type: none"> ➤ Sanoatni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari va qo‘llab-quvvatlashlar mavjud; ➤ Innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirish imkoniyatlari mavjud; ➤ Raqamli platformalarda mahalliy kontentni yaratish va targ‘ib qilish imkoniyati ➤ Xalqaro investorlar va xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali eksport imkoniyatlari kengaytirish borasida yangi bozorlarni o‘rganish, mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga yo‘naltirish va ishlab chiqarishni rag‘batlantirish orqali iqtisodiy o‘shishga erishish; ➤ Turizmni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar orqali qo‘shimcha iqtisodiy daromad olish. 	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Geografik siyosiy beqarorlik jihatidan mintaqadagi geosiyosiy vaziyatlar homiylik va investitsiyalarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi; ➤ Global iqtisodiy o‘zgarishlar va bozor muammolari investitsiyalarni kamaytirishi; ➤ Xalqaro siyosiy vaziyat va sanksiyalar sanoatni rivojlantirishda murakkabliklarni keltirib chiqarishi; ➤ Sanoat rivojlanishi natijasida ekosistemalarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi; ➤ Yashil texnologiyalar va ekologik toza ishlab chiqarish yo‘nalishlarining sust rivojlangani uzoq muddatli barqarorlikka xavf tug‘dirishi; ➤ Yuqori foizli moliyaviy kreditlar va investitsiya uchun muqobil moliyalashtirish vositalarining kamligi tadbirkorlik muhitini susaytiradi.

Mintaqada sanoat tarmog‘iga kiritilgan investitsiya samaradorligini baholashda ko‘rsatkichlar tizimiga hudud infratuzilmasi ko‘rsatkichini (*HIK*) kiritish asosida “birinchi darajali infratuzilma”, “ikkinchi darajali xizmatlar” va “integratsiyalashgan infratuzilma ko‘rsatkichlari” mezonlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

“Surxondaryo viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni ekonometrik modellashtirish va prognozlash” deb nomlangan uchinchi bobda esa sanoat tarmog‘ida investitsiyalardan samarali foydalanish jarayonida investitsiya samaradorligini oshirish to‘g‘risida qarorlar qabul qilishda ekspert so‘rovi usulidan

¹⁷ Muallif ishlanmasi

foydalanilgan. YaHM hajmiga, sanoat korxonalarida yaratilgan mahsulot hajmiga, tashkil etilgan sanoat korxonalari soniga, ish bilan band bo‘lganlar soni hamda sanoat korxonalariga kiritilgan investitsiya hajmi ko‘rsatkichlarining korrelatsion bog‘lanish tenglamalari hamda ARIMA modeli yordamida mintaqada 2024-2029 yillarga mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlar modellari ishlab chiqilgan.

Tanlangan tadqiqot yo‘nalishlari bo‘yicha ko‘rsatkichlarni tartiblash uchun har bir ko‘rsatkich uchun baholash (0 dan 1 gacha bo‘lgan oraliqda) quyidagilar uchun taqdim etilgan baholash shkalasi bo‘yicha belgilanadi¹⁸.

5-jadval

E. Xarringtonning verbal raqamli shkalasining raqamli intervallari¹⁹

№	Ekspert-mutaxassislar fikrlarining kelishuvchanligi qiymatlari oralig‘i (W)	Ekspert-mutaxassislar fikrlarining kelishuvchanligi qiymatlariga mos keladigan lingvistik baholash
1	1,00-0,80	Juda yaxshi
2	0,80-0,63	Yaxshi
3	0,63-0,37	Qoniqarli
4	0,37-0,20	Yomon
5	0,20-0,00	Juda yomon

Investitsiya samaradorligi ko‘rsatkichlarini baholash darajasi yuqoridagi shkalada ko‘rsatilgan lingvistik baholash qiymatlari orqali topiladi.

